

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**UBAYDULLAYEV NORMUHAMMAD XASANOVICH**

**O‘ZBEK BIOGRAFIK ASARLARIDA IJODKOR SIYMOSI VA  
SHAXSIYATI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)  
по филологическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc)  
on Philological Science**

**Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich**

О‘zbek biografik asarlarida ijodkor siymosi va shaxsiyati talqini..... 3

**Убайдуллаев Нормухаммад Хасанович**

Интерпретация образа и личности творца в узбекских биографических произведениях..... 35

**Ubaydullayev Normuhammad Xasanovich**

Interpretation of the creator's image and personality in uzbek biographical works ..... 69

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 74

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**UBAYDULLAYEV NORMUHAMMAD XASANOVICH**

**O‘ZBEK BIOGRAFIK ASARLARIDA IJODKOR SIYMOSI VA  
SHAXSIYATI TALQINI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Doktorlik dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/Fil375 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Mirzayev Ibodulla Kamolovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Nasirov Azimidin Normamatovich</b> filologiya fanlari doktori, professor <b>Yakubov Islam Axmedjanovich</b> filologiya fanlari doktori, professor <b>Raximov Zakir Azimovich</b> filologiya fanlari doktori, professor
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Jizzax davlat pedagogika universiteti</b>

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92; faks: +99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: +99366 239-11-40, +99366 239-18-92.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.A. Hasanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

**D.B. Xursanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**N.M. Muhitdinova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida biografik asar poetikasi borasida olib borilayotgan tadqiqotlarda biografik asarlarning kelib chiqishi va uning tadrijiy rivojlanish yo‘nalishlari haqida so‘z yuritilmoqda. Biograf asar mualliflari hayot haqiqatini badiiy-tasviriy vositalar bilan uyg‘unlashtirib, inson ichki olamining bir jihatini jamiyat hayoti bilan uyg‘un tarzda idrok etish usullariga alohida e‘tibor qaratmoqda. Natijada biografik asar yo‘nalishining tadrijiy rivojlanish qonuniyatlari o‘z-o‘zidan oydinlashadi, xuddi rang-tasvir asarini tomosha qilgandek, ruhiyat bilan bog‘liq qator masalalarga aniqlik kiritish imkoni tug‘iladi. Shu bois adabiyotshunoslikning ilmiy-nazariy qonun-qoidalarini takomillishtirishga qaratilgan mazkur tadqiqot bugungi kun nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida umume‘tirof etilgan biografik talqin nazariyasi antik yunon adabiyoti va san‘atida eposdan kelib chiqqan hodisa sifatida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Unda milliy ruhiy xususiyatlar ham, zamonning ilg‘or yo‘nalishlari ham xalq og‘zaki ijodi asosida shakllangani, yozuv paydo bo‘lmasidan avval insonning ongida “uyquda” yotgan o‘tmish sahifalari asta-sekinlik bilan tadrij rivojlanib borgani ko‘rsatiladi. Biografik asar tabiatida insonning kundalik turmush tarzi bilan uni bevosita o‘rab turgan muhit tasviri uyg‘unlashuvi, xuddi dunyo xaritasidagi davlatlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagani kabi asrlar davomida rivojlanganini tasdiqlaydi. Aynan shu poetik tuzilma negizida biografik asar imkoniyatlari cheksiz kengayib borishi zarurat sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarida badiiy asarlarni zamonaviy talablar asosida tahlil etish zaruriyati kundan kunga ortib bormoqda. Xususan, biografik asar metodologiyasida ijodkor qiyofasini yaratish bugungi kunda ommalashgan esse, xotira, memuar va badialarning bir ko‘rinishi ekanligini namoyon etadi. Ta‘kidlash joizki, badiiy asar sujetida biograf makon va zamonda kechayotgan poetik g‘oyani ilgari suradi hamda obrazlar dinamikasini o‘z-o‘zidan oydinlashishiga keng imkon beradi. Natijada, biografik asarning falsafiy-psixologik, estetik jihatlari namoyon bo‘lib, ijodkor qiyofasini qayta kashf etishga keng imkoniyat yaratganligi seziladi. “Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu, avvalo, xalqimizga e‘tibor, kelajagimizga e‘tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”<sup>1</sup>. Natijada o‘zbek adabiyotida XX asrning 50-yillaridan boshlangan biografik asar imkoniyatlari istiqloq yillariga kelib yanada takomillashdi, tadrijiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Qariyb 70 yillik ijodiy tajribani o‘zida mujassam etgan biografik asarning keng imkoniyatlari ulkan folklor asarlaridan o‘tib kelganligini ta‘kidlash joiz. Ijodkorning shaxsiy hayoti, yashagan muhiti, ruhiy-psixologik holati, shaxsiy qiziqishlari, biror asarning yaratilishiga turtki bo‘lgan omillar, ijod laboratoriyasiga xos jihatlarni bilish va ularning ochilmagan qirralarini kashf etish, ibratli va achchiq hayotidan saboq chiqarish mavzuning dolzarbligi va zaruriyatini belgilaydi.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдевори // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – 4 август.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tuzishini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

#### **Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Biografik asarlar poetikasi muammosi va zamonaviy o‘zbek memuaristikasi haqida dunyoning ilg‘or ilmiy-tadqiqot markazlari, OTMlari, xususan, Oxford University (Buyuk Britaniya), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Humboldt Universitat (Germaniya), the University of Sorbonne (Fransiya), Kioto University (Yaponiya), National University of Seoul (Janubiy Koreya), Markaziy-Yevropa universiteti va “Ochiq jamiyat” instituti (Budapesht, Vengriya), Manchester University (Buyuk Britaniya), Jorjiya universitetining ekologiya insitututi (AQSh), Massachusetts Institute of Technology (AQSh), Indiana University (AQSh), Istanbul universiteti, Anqara universiteti, Karabuk universiteti (Turkiya), Rossiya davlat gumanitar universiteti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), Milliy ilmlar akademiyasi Adabiyot instituti, Baku Yevroosiyo universiteti (Ozarbayjon), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O‘zbekiston)da ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon adabiyotshunosligida biografik asar poetikasiga oid bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Yunon olimi Aristotelning

---

<sup>2</sup> Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://arts.unimelb.edu.au/nceis>; <https://www.westernsydney.edu.au>; <https://sllc.umd.edu/persian/about>; <http://nelc.uchicago.edu>; <https://nelc.osu.edu>; <http://ut.ac.ir>; <http://www.um.ac.ir>; <https://www.amu.ac.in>; <http://www.du.ac.in/du>; <http://www.istanbul.edu.tr/tr>; <https://www.ankara.edu.tr>; <http://gazi.edu.tr>; <https://www.orientalstudies.az/ru>; <http://literature.az/?lang=aze>; <http://www.kaznu.kz/ru>; <http://www.iaas.msu.ru>; <https://www.ivran.ru>; <https://spbu.ru>; <http://www.orient.spbu.ru/ru>; <http://www.orientalstudies.ru>; <http://orientalstudies.org.ua/uk/home>; <http://zoa.dmt.tj>; <http://iza.tj/ru/institut-yazyka-literatury-vostokovedeniya-ipismennogo-naslediya-imrudaki>; <http://tashgiv.uz/ru/>; <http://navoiy-uni.uz/uz-k>; <http://www.samdu.uz>; <http://www.fardu.uz> va boshqa manbalar negizida amalga oshirildi.

“Poetika” asari muammoning ilk ildizlariga katta manba sifatida xizmat qilishi shubhasiz. Rus adabiyotshunosligida A.A.Potebnya, D.N.Ovsyanko-Kulikovskiy, A.G.Grofed, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik yondashuvlari; V.Shklovskiy, V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, L.S.Vigotskiy, R.Bart, Yu.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermaxer, V.Diltey, M.Xaydegger, G.G.Gadamerlarning monografik xarakterdagi ilmiy izlanishlari masalaning ba’zi jihatlarini yoritishga yordam berishi mumkin<sup>3</sup>. Ushbu tanqidchi-olimlarning ilmiy-nazariy tadqiqotlarida biografik-hujjatli qissalar, xotiralar, badiiy psixologizm va ijodkor shaxsi haqidagi ayrim asarlar jalb etilgani, shuningdek, ularning mahorati va uslubi qanday o’rganilganligi e’tiborga loyiqdir. Bu ingliz, turk va rus yozuvchilarining ayrim asarlarini tahlil qilishda yaqqol namoyon bo’ladi.

O’zbek adabiyotshunos olimlari, tadqiqotchilaridan M.Qo’shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, D.To’rayev, M.Xolbekov, Q.Yo’ldoshev, D.Quronov, U.Jo’raqulov, U.Qosimov, B.Karimov, I.Yoqubov, V.Alimasov, A.Nosirov, Z.Rahimov, Sh.Doniyorova, M.Boboxonov, U.Rasulova<sup>4</sup>lar izlanishlarida biografik asarning u yoki bu jihatlari haqida so’z yuritiladi. Ammo zamonaviy o’zbek biografik asarning qiyosiy tahlili, badiiy psixologizm va ijodkor fitrati, qiyofasini yaratish muammosi alohida tadqiq qilinmagan.

O’zbek nasrida biografik obraz tadqiqi borasida qilingan alohida keng plandagi monografik tadqiqot yaratilgan emas. Shu maqsadda, ishning strukturasi ochib berishda uchta muhim jihatni e’tiborga olishni lozim topdik: a) o’tgan asrning boshlarida yaratilgan biografik asarlarning yuzaga kelish omillari namoyon bo’lishi; b) urushdan keyingi mehnatkash xalq ruhiyatida inson matonati va milliy an’analar takomilining aks etishi; v) istiqlol davridan to hozirgi davrigacha yaratilgan

---

<sup>3</sup> История русского литературоведения. – Москва: 1980; Сакулин П.А. Филология и культурология. – Москва: 1990; Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – Москва: 1981; Сент-Бёв Ш. Литературные портреты. Критические очерки. – Москва: 1970; Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: 1981; Его же: Введение в структуральный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX – XX вв. – Москва: 1987; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. – Ленинград: 1972; Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. – Москва: 1991.

<sup>4</sup> Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; Султонов И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010; Қўшжонов М. Ижод масъулияти. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; Қўшжонов М. Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарқ, 2004; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Солижонов Й. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2002; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Раҳимов А. Роман санъати. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2015; Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Раҳимжонов Н. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016; Раҳимжонов Н. Адиб эстетикаси. – Тошкент: Фан, 2017; Қуронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004; Қуронов Д. Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Қуронов Д. Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018; Қосимов У. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: ЎЗМУ кутубхонаси нашриёти, 2008; Каримов Б. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016; Ёқубов И. Муҳаммад Али ижодида тарихий жараён концепцияси ва лиро-романтик талқин. –Т: Фан., 2007. –Б.80. Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. –Т: Фан., 2012. –Б. 160. Дониёрова Ш. Омон Мухтор ижодида янгича талқинлар. – Т.:Turon zamin ziyo, 2017. –Б.112.; Расулова У. XX аср ўзбек қиссачилиги(поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.фан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.249.

biografik asarlarda ijodkor qiyofasining, ruhiyatining ochilishi, yozuvchining ishonchi va obrazlar tizimini yagona estetik markazda tashkil etish malakasining shakllanishiga borib tutashishida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy hayotda inson mehnatkash qatlamining yoritilishida asosan – qishloq va shahar sujeti liniyalari bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, insonning muqaddas xilqat, uning orzulari, umidlari, oilaparvarligi, muhimi, sabr-u qanoati, mehribonligi ko‘pchilik qissalarda sujetlar silsilasi o‘xshashligini anglashda qo‘l keladi. A.Qodiriy, A.Qahhor, Oybekning ijodiy izlanishlari, jamiyat a‘zolari bilan murosaga kela olmasligi, adolatgo‘y yozuvchilarning xarakter qirralari kuchli tragik drammatizmni namoyon etadi. Unda millat sajiyasi va yozuvchilar kayfiyati o‘zaro uyg‘unlashib, biografik talqin imkoniyatlarini nisbatan kengayishiga zamin hozirlaydi.

Ushbu masalalar biografik asar tendensiyalari hamda rivojlanish bosqichlarida ijodkor qiyofasini yaratishga oid mahoratning o‘sishi, o‘ziga xosligi jihatidan poetik talqinini aniqlashda asosiy tadqiq obyektini vazifasini bajaradi.

### **Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Tadqiqot Samarqand davlat pedagogika instituti Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutining oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash, fan va texnikaning ustuvor yo‘nalishlarida fundamental tadqiqotlarni rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqot maqsadi** o‘zbek biografik asarlarida ijodkor siymosi va shaxsiyati badiiy talqinining shakllanish jarayonini tarixiy, poetik, kompozitsion va uslubiy jihatdan ochib berish hamda zamonaviy biografik nasrning rivojlanishidagi estetik tamoyillarni belgilashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

biografik asar strukturasi badiiy uslub, yozuvchi uslubi, ruhiy-falsafiy tahlil negizida obrazning ochib berilishini asoslash;

poetik g‘oya va ijodiy individuallik mohiyatida davr va undagi voqeliklarni paydo bo‘lish omillari bir janr doirasida aks etish tamoyillarini qiyoslash va idroklash yaxlitlik kasb etishini o‘rganish;

biografik asarlarda qahramon intellekti namoyishining o‘ziga xos qirralarini bir-birini to‘ldiruvchi muhit suvratida millatning muqaddas tushunchasiga mantiqiy urg‘u berish;

XX asrning ziyolilar ongida shakllangan adolat va istiqloq tuyg‘ularining yaratgan asarlarida aks etish funksiyasini jahon va o‘zbek yozuvchilari olib borgan badiiy izlanishlarda voqelikni yaratish fragmentlarining evrilishlar nuqtayi nazaridan global dunyo sarhadlarining yaqinlashuvi (ruhiy-ijtimoiy iqlim)ni dalolatlash;

biografik asar mualliflari personajlar xarakterini o‘zlashtirishda o‘zgaruvchan hodisa ekanligini davrlar silsilasida ro‘y bergan ijtimoiy-madaniy munosabatlar tig‘izlashuvi fonida baholash bilan birgalikda obrazning diniy-badiiy kitoblarda aks etishiga ham to‘xtalib o‘tishdan iboratligini ko‘rsatish.

ijodkor qiyofasini yaratish mahoratida sujet va kompozitsiyaning hal qiluvchi roli va ahamiyatini xronotop negizida asoslash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Habibullo Qodiriyning “Otam haqida”, Zarifa

Saidnosirovaning “Oybegim mening”, Kibriyo Qahharovanning “Chorak asr hamnafas” xotira-qissalari tanlangan. Ba’zi o‘rinlarda boshqa-da xotiranaslar ijodi bilan qiyoslangan.

**Tadqiqotning predmetini** biografik asarlarda obrazlik, janriy-uslubiy, qiyosiy tahlilini aniqlashtirishda poetik uslub va badiiy shakl yaxlitligi, psixologizmning sujet hamda kompozitsiyada namoyon bo‘lish omillarini, shuningdek, xronotop tushunchasini hal etish qamraydi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, biografik, struktural-analiz tadqiq usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

o‘zbek biografik asarlarining tarixiy ildizlari xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek adabiyoti tarixi bosqichlarida shakllangan hamda uning tezkor tarixiy o‘zgarishi, rang-barang ko‘rinishlarga ega bo‘lishi janr taraqqiyotining o‘tmish bilan bog‘liq real hayotda yashab o‘tgan va yashayotgan ijodkorlarning xarakter va psixologik jihatlari ular yaratgan obrazlarga ko‘chishi, O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida biografik elementlarning dastlabki ko‘rinishlari uchrashi asoslangan;

o‘zbek biografik adabiyotida obrazlilikni vujudga keltiruvchi istiora, epitet, o‘xshatish kabi badiiy vositalar, badiiy haqiqat va hayotiy haqiqat uyg‘unligi hamda ichki monologlar, ong oqimi, hissiy kechinmalarni mikrodetal orqali ko‘rsatishning yangi tasvir tamoyillarining yuzaga kelishi aniqlangan;

Habibullo Qodiriyning “Otam haqida” va Zarifa Saidnosirovaning “Oybegim mening” xotira asarlari misolida davr muammolarining ochib berilishi hamda senzura va taqiqlar, erkin yashash uchun kurashning badiiy talqini, inson va davr o‘rtasidagi ziddiyatlar, ruhiy drammatizm kabi poetik g‘oyalar va obraz yaratishning haqiqatga sodiqlik, xarakter izchilligi, konfliktning mantiqiyliigi, harakat va nutqning shaxsga mosligi dalillangan;

Kibriyo Qahharovanning “Chorak asr hamnafas” asarlarida uslubiy shakllanish jarayoni jahon va rus memuar-qissa maktabi ta’sirlari bilan bog‘liq ekanligi, protatipning oddiy mavzudan murakkab mavzuga ko‘tarilishi, badiiy modifikatsiya jarayonlari hamda o‘zbek biografik nasriga kiritgan fakt va badiiy talqinning ilmiy integratsiyasi, psixobiografik tahlilning kuchayib borishi isbotlangan;

xotiranomalarda epistolyar janr elementlarining faol qo‘llanishi va ular orqali qahramon shaxsiyati, ruhiy holati, xakteri yanada chuqurroq ochilishi o‘zbek biografik asarlarida “intim-avtobiografik uslub” va “biografik metod”ning murakkab vaqt strukturasida qo‘llanilishi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

biografik asar strukturasida obrazning o‘rni va ahamiyati janrning tarixiy ildizlaridan oziqlanishi, davrning muhim bo‘g‘ini sanalmish har qanday yozuvchiga ilhom ato qiluvchi masalalar asoslangan;

ikkinchi jahon urushidan keyingi davr yozuvchilari yaratgan obrazi maishiy turmushning bir bo‘lagi sifatida qaralgani diqqat bilan o‘rganilgan;

biografik asarning yuzaga kelishida qulay shart-sharoit va muhitning ham o‘rni beqiyos ekanligi dalolatlangan;

“Otam haqida”, “Oybegim mening”, “Chorak asr hamnafas” xotira-qissalarida ijodkor qiyofasini yaratish, obrazning qator tavsifi, janrga xos o‘sish-o‘zgarishlar va

uning ruhiy iqlimida ro‘y berayotgan maishiy turmush oqimlarining ta’siri sezilarli darajada aks etgani qiyosiy tahlil qilinib, badiiy matndagi hal qiluvchi muhim belgilar isbotlangan;

biografik asarlarning o‘ziga xosligini dalolatlashda hamda obraz yaratilishida milliy istiqlol ruhiyatining aks ettirilishida jahon xaritasida paydo bo‘lgan milliy zamin iqtidorlarining uslubiy-shakliy izlanishlari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** mavzu tanlash va muammoning aniq qo‘yilganligi, keltirilgan nazariy ma’lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil kriteriyalarining tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixanalitik, biografik, struktural-analiz tadqiq usullari negizida asoslanishi, xulosa va tavsiyalarning esa amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning ilmiy xulosalaridan biografik asarda uslub, janr va xronotop talqini, qiyosiy tahlilini aniqlashda obrazlarning davrlarga, darvlarning makon va zamonda aks etish prinsiplarini dalolatlashda, poetik sujet va kompozitsiya, uslub va shakl, badiiy xronotopning asar mohiyatidagi rolini belgilashda, jahon adabiyotshunosligida ro‘y berayotgan o‘sish-o‘zgarishlarni chamalashda, falsafiy-estetik qamrov qirralarini tasniflashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashtirma va tahlillardan oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, o‘zbek biografik asar va kompozitsiyasini qiyosiy o‘rganishda, shuningdek, tegishli darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratishda hamda adabiyotga oid izohli lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotda qo‘lga kiritilgan natijalari orqali ijodkor qiyofasini yaratishda biografik asar imkoniyatlari va makon va zamonda aks etish tamoyillarini aniqlashda, poetik sujet va kompozitsiya, uslub va shakl jihatlarini tadqiq qilish asosida:

o‘zbek biografik asarlarining tarixiy ildizlari xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek adabiyoti tarixi bosqichlarida shakllangan hamda uning tezkor tarixiy o‘zgarishi, rang-barang ko‘rinishlarga ega bo‘lishi janr taraqqiyotining o‘tmish bilan bog‘liq real hayotda yashab o‘tgan va yashayotgan ijodkorlarning xarakter va psixologik jihatlarini ular yaratgan obrazlarga ko‘chishi ochib berilganligiga oid masalalardan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialida bajarilgan FZ-2016-0908116532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2024-yil 11-dekabrda 427-son ma’lumotnomasi). Natijada fundamental tadqiqot loyihasining adabiyot janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etishga bag‘ishlangan qismini boyitilishiga xizmat qilgan;

o‘zbek biografik adabiyotida obrazlilikni vujudga keltiruvchi istiora, epitet, o‘xshatish kabi badiiy vositalar, badiiy haqiqat va hayotiy haqiqat uyg‘unligi hamda

ichki monologlar, ong oqimi, hissiy kechinmalarni mikrodetal orqali ko'rsatishning yangi tasvir tamoyillarining yuzaga kelishi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan "English Access Microscholarship Program" loyihasi doirasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-son ma'lumotnomasi). Natijada biografik asarlarda ijodkor shaxsi qiyofasini hayotiy faktlar asosida tasvirlash orqali tinglovchilar bilimining kengayishiga erishilgan;

Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" va Zarifa Saidnosirovaning "Oybegim mening" xotira asarlari misolida davr muammolarining ochib berilishi hamda senzura va taqiqlar, erkin yashash uchun kurashning badiiy talqini, inson va davr o'rtasidagi ziddiyatlar, ruhiy drammatizm kabi poetik g'oyalar va obraz yaratishning haqiqatga sodiqlik, xarakter izchilligi, konfliktning mantiqiyliigi, harakat va nutqning shaxsga mosligi dalillanganligiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 2021-2023-yillarda bajarilgan I-OT-2022-65-shifri "Dinlar tarixi, ta'limoti, manbalari va an'alarini tadqiq etish asosida "Dunyo dinlari" elektron dasturi va mobil ilovasini yaratish" nomli amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2024-yil 11-dekabrda 5-814-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy qismi ilmiy xulosalar, dalillar bilan boyitilishiga zamin yaratgan;

Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr hamnafas" asarlarida uslubiy shakllanish jarayoni jahon va rus memuar-qissa maktabi ta'sirlari bilan bog'liq ekanligi, protatipning oddiy mavzudan murakkab mavzuga ko'tarilishi, badiiy modifikatsiya jarayonlari hamda o'zbek biografik nasriga kiritgan fakt va badiiy talqinning ilmiy integratsiyasi, psixobiografik tahlilning kuchayib borishi isbotlanganligi haqidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021-2022-yillarda bajarilgan "O'zbek harbiy san'ati tarixi" nomli fundamental loyiha doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasining 2024-yil 23-dekabrda 10/2608-son ma'lumotnomasi). Natijada biografik tasvirning tarixiy taraqqiyoti, xotiranomalarda obrazlilikni yuzaga keltiruvchi sujet va kompozitsion birliklar tizimida talqin qilinganligi loyihada monografiya mazmunini boyitilishida o'z aksini topgan;

xotiranomalarda epistolyar janr elementlarining faol qo'llanishi va ular orqali qahramon shaxsiyati, ruhiy holati, xarakteri yanada chuqurroq ochilishi o'zbek biografik asarlarida "intim-avtobiografik uslub" va "biografik metod"ning murakkab vaqt strukturasi qo'llanilishi ochib berilganligi haqidagi xulosalardan dissertatsiyaning tadqiqot natijalari va materiallaridan davlat ilmiy-texnik dasturi doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 27-mayda 01/4-2153-son

ma'lumotnomasi). Natijada biografik asarning genezisi, antik davr adabiyotining tadrijiy takomili, g'oyasi, biografik asar qahramonlariga xos xarakter xususiyatlari, hayot va o'lim muammosiga aloqador motivlar tahlili haqidagi fikr-mulohazalardan kitobxon dunyoqarashi kengayishiga xizmat qilgan;

turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda ijodkor qiyofasini yaratishga keng e'tibor qaratilayotganligi milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz mustahkamlanishiga sabab bo'lganligi bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Abdulla Qodiriy tavalludining 130 yilligi, Oybek tavalludining 119 yilligi, Abdulla Qahhor tavalludining 117 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining qator tadbirlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2025-yil 9-yanvardagi 01-03/3-son ma'lumotnomasi). Natijada biografik asarlarda ijodkor shaxsi qiyofasini hayotiy faktlar asosida tasvirlash orqali tinglovchilar bilimining kengayishiga erishilgan;

dissertatsiya natijalari asosida "Ma'rifat shu'lasi" ko'rsatuvini (Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhorlarning hayot yo'llari, asarlari tahliliga bag'ishlangan) bir qator sonlari tayyorlanib, e'fira uzatishda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2025-yil 10-yanvardagi 01-07/23-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ko'rsatuvlar mazmuni yangi ilmiy-adabiy manbalar bilan boyitilgani e'tirof etilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta xalqaro konferensiya va 7 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida ma'ruza va tezislar ko'rinishida ilmiy jamoatchilikka havola etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ish, jumladan, 1 monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta, xorijiy jurnallarda 7 ta maqola chop etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 247 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Ishning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi tahlil qilingan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr yetilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Jahon adabiyotida biografik asarlarning shakllanish genezisi va tadrijiy takomili**" deb nomlanib, uch fasldan tashkil topgan. Mazkur bobning birinchi fasli "**Biografik asarning ilk ildizlari: an'ana va novatorlik**" deya ataladi. Inson ruhiyati hamisha o'zining bosib o'tgan yo'l-

xaritasida maromiga yetadi. Ayniqsa, jamiyatning komil fuqarosi bo'lgan buyuk san'atkorlar ijodida shunday biografik xususiyatga ega asarlar bo'ladiki, ularni har tomonlama chuqur o'rganish muammoning ildiziga yetib borish imkonini beradi. "Bunday asarlarning mualliflari shunchaki biografga nisbatan voqealar talqinida ko'proq erkinlikka ega, shuning uchun uning o'quvchilari ham insoniy ishtiyoqlar to'g'risida subyektiv taassurot hosil qilishda keng imkoniyatga ega bo'ladilar. Agar shu ishlar mobaynida jo'nlashtirish tamoyili namoyon bo'layotgan bo'lsa, biz o'tmishimizni xayolan qamrab olishga harakat qilar ekanmiz, sodir bo'lgan voqealarning o'ndan to'qqiz qismi xotiramizdan tushib qoladi, biz faqat bu voqealarning "qaymog'i"nigina eslab qolgan bo'lamiz<sup>5</sup>. Haqiqatdan ham, "biografik asar" muallifi voqealarning barchasini bir boshdan qamrab uni qayta kashf etishga qodir emas, insonning miyasida ro'y berayotgan o'sish-o'zgarishlar, ziddiyat va ma'lum o'zgarishlar ta'sirida qandaydir uzilishlarga duchor bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda, biografik asar muallifi voqealarning batartib joylashuvini, ro'y berish vaqtini, sabab va oqibatlarini zimdan kuzatadi, o'ziga eng muhim va tanish xislarlarnigina tasvirlab, qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin.

Jahon adabiy-badiiy tafakkuri taraqqiyot qilgan vaqtlardan buyon odamzod o'z xatti-harakatlari, intilishlari, ko'rgan-kechirganlarini yozib qoldirishni odat qilishgan. U qanday shaklda bo'lmasin, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, falsafiy-estetik tamoyillarni – inson nima bilan mashg'ul bo'lgan bo'lsa o'sha xislatlarni bayon qilishni ko'rsatgan. Dastlab bu holatni o'zligini anglash, yuz bergan voqeaga munosabat bildirish, hodisa mohiyatini tushunish maqsadida bajargan bo'lsa, keyinchalik u boshqalarga o'zi haqida ma'lumot berish vazifasi uchun ham xizmat qilgan. Bu jarayonni tarixiy taraqqiyot samarasi o'laroq, biografik janr tadrijiy rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi.

Antik adabiyotda ham xronika shahar-davlatlarda yo'lga qo'yilgan. Lekin shunday bo'lsa-da, o'tgan voqealarni esda saqlab qolish, uni og'zaki aytib yurish udumi ham saqlanib qolgan. Voqealarni muallif ko'zi bilan ko'rib, qayd etib borish keyinchalik sayohatnoma, xotira, kundalik, esdalik shaklida yozish biografik janrning asosiy yo'nalishi va janr xususiyati shakllanishiga asos bo'lgan. Demak, dastlabki mulohazalarni yakunlab ta'kidlash lozimki, esdalik, xotira ifodasiga ko'ra, dastlab ikki xil bo'ladi: 1) og'zaki xotira; 2) yozma. Uning yetakchi belgisi, voqealar muallif tilidan bayon qilinishi o'sha paytdayoq shakllangan.

Akademik I.Bichurin qadimgi Xitoy saroylaridagi kundalik yozuvlarni o'rganib Xitoyda bu ishlar salkam uch ming yil oldin ham mavjudligini e'tirof etgan<sup>6</sup>. Demak, hujjatlilik biografik janriga yetakchi belgi sifatida o'tgan. Adabiyotshunos A.G.Tartakovskiy ta'biricha: "Muallif mustaqil va tugal janr formulasi shaklini yaratar ekan, subyektiv haqiqatni ilgari surishi hamda qanday vaziyat va holatda bo'lmasin, bitta hududdagi voqelikni ifodalaydi"<sup>7</sup>. Keltirilgan manbada janr ichki qonunlarini yangilash xotirnavisning poetik izlanishlari natijasida takomillasha borishiga diqqat qaratiladi. Bu borada olib borilgan

<sup>5</sup> Stoun Irvin. Biografik qissa haqida // Jahon adiblari adabiyot haqida. - T.: Ma'naviyat, 2010. –B.97.

<sup>6</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент:Академнашр, 2010. –Б.148.

<sup>7</sup> Тартаковский А.Г. 1812 год и русская мемуаристика. –М., 1980. –С. 21.

tadqiqotlarda: “Ilmiy va badiiy ijod orasidagi janr” (L.Ya.Ginzburg)<sup>8</sup>, “hujjatli badiiy asar” (T.G.Simonova)<sup>9</sup>, “Faktlarga asoslangan nasr” (M.Yu.Mixeyev)<sup>10</sup> tarzida namoyon bo‘lishini jahon va rus olimlari e’tirof qilishgan.

Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Olmoniya, Ispaniya adabiyotlarida biografik janri o‘ziga xos original, badiiy-estetik, falsafiy-psixologik shakllarga egaligi bilan e’tiborga loyiqdir. Rus adabiyotining “Oltin davri”ga oid biografiyalari ham ushbu janr tadrijiy taraqqiyotiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi. Bular N.A. Belogoloviy, K.S.Askakov, B.N.Chicherin, N.V.Berg singari yozuvchilarning biografik ocherklari, kundaliklari, xotiralari tarzida dunyoga keldi.

Rus adabiyotida biografik janrni o‘rganish asosan o‘tgan asrning 60-70 yillaridan boshlanib, keyinchalik jarayon tusini oldi. Olib borilgan tadqiqotlarning ko‘pchiligi XVII-XVIII asr fransuz adabiyotiga xos janr ekanligini alohida ta’kidlashdi, biroq ularning janriy-kompozitsion unsurlari rus yozuvchilari ijodida ham kuzatilishini qayd etishdi.

Bobning ikkinchi fasli **“O‘zbek adabiyotida biografik asarlarning shakllanishi va tadrijiy bosqichlari”** deb nomlanib, unda ruhiyat bilan bog‘liq barcha fanlar negizida badiiy shakl (biografik janr) o‘lchovlari bilan ifodalanishi talqin qilinadi. Millat sajiyasi va tafakkur sarhadlari estetik jihatdan tarixiy solnomalar bilan oziqlanadi. XX asrga qadar bu metod aralash holda zuhur etildi. XV asrning o‘rtalariga qadar biografik janr tuzilishida obraz va matn silsilasida deyarli bir xillik yuzaga keldi. Masnaviy yoki ruboiy shaklida bitilgan A.Jomiy, A.Navoiy ijodida janrning o‘zi bo‘lmasa-da, ayrim janrga xos xususiyatlar saqlanib qolganligini inkor qilib bo‘lmaydi. Navoiyning tarixiy yoki ma’naviy-ma’rifiy asarlarida talqin va tasvir usullarida ana shu jihat qabarib ko‘rinadi. Xatlar, maktublar, o‘zaro yozishmalar, turkiy xalqlar adabiyotiga xos epik ko‘lam, qahramonlarning xatti-harakatlari, do‘stlik rishtalari, manfaatlar to‘qnashuvi, xonliklarga bo‘linishlar, ziyoli qatlamning mamlakat sarhadlaridan sazoyi qilinishi bularning barchasida janrning u yoki bu jihati namoyon bo‘lishini inkor qilib bo‘lmaydi. Mana shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, o‘zbek adabiyotining g‘oyat qaltis vaziyatlarda qolib ketganligini ham bilib olish mumkin. Qadimgi turkiy yozuvlar biografik janrning dastlabki ko‘rinishlari sanaladi. Biroq bular keyinchalik taraqqiy topib, tazkira, manoqib, qissa, doston singari janrlarga ajralgan holda tadrijiy rivojlanishda davom etdi. Faqat XX asr boshlariga kelgandan keyin, janrning aniq mezoni, chegarasi belgilab olindi. Bu o‘zbek adabiyotida Fitrat, A.Qodiriy, Oybek, A.Qahhor, G‘.G‘ulomning badiiy izlanishlarida biografik janrning u yoki bu ko‘rinishlari eksperiment sifatida yuzaga chiqa boshladi.

Janrning o‘zbek adabiyotida tadrijiy taraqqiyoti va uslub barkamolligi. 90-yillardan boshlab, O.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, O‘.Umarbekov, O‘.Usmonov, R.Choriyev, A.Oripov kabi shoir, olim yozuvchilar haqida biografik esse janriga Sh.Xolmirzayev tamal toshini qo‘ydi. Amerikalik olim Pol Kendall biografik asarni

<sup>8</sup> Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л., 1971. –С.6.

<sup>9</sup> Симонова Т.Г. Мемуарная проза русских писателей XX века: поэтика и типология жанра. –Гродно, 2002. –С.8.

<sup>10</sup> Михеев М.Ю. Фактографическая проза, или Пред-текст//Человек. -2004. -№2. –С.134.

quyidagi sakkizta jihatga ajratib tasniflaydi hamda ularning bir-biridan farqli tomonlarini badiiylikdan to ilmiylikka qadar yuksalishi, saralanishini ifodalaydi:

1. *Biografiya uslubiga solingan roman*. 2. *Badiiylashtirilgan, belletristik biografiya*. 3. *Talqiniy biografiya*. 4. *Psixologik biografiya*. 5. *Hayot va davr tasvir etilgan biografiya*. 6. *Tadqiqot negizida yozilgan biografiya*. 8. *Akademik usulda yozilgan biografiya*. 8. *Hayot haqidagi xat-maktub biografiya*<sup>11</sup>. Mana shu jarayonning o'ziyoq biografik asarlarda tizimli yondashuv hosilasi nechog'li muhim ekanligini isbotlab turibdi. Demak, biografik janr qamrov va idrok nuqtayi nazaridan **inson-yozuvchi-qahramon-hayot** formulalarini bir ipga tizilgan marjondek ifodalovchi o'ziga xos kechinmalardan iboratligini (talqin va tasvir) yuzaga chiqishiga kafolat beradi.

Tarixshunoslar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar B.Ahmedov, H.Qudratullayev, X.Sultonov biografik janrning yanada taraqqiy etishida, tarixiy shaxslarning o'zbek adabiyotida, davlatchiligimiz tarixida tutgan o'rnini beqiyos asarlari bilan keng miqyosda yoritib berganligini ko'rishimiz mumkin. Har bir davrning mushohadaga va munozaraga chorlaydigan mezonlari bo'ladiki, busiz jamiyat oldinga qarab rivojlanmaydi. Faylasuf J.P.Sartrning bu haqdagi qarashlari bugun uchun ham muhim ekanligi ayonlashadi: "Biz insonni mas'uldir, deganimizda, bu – faqat uning o'z shaxsiyatinigina javobgar, degani emas. U barcha odamlar uchun mas'uldir. Biz, inson o'zini o'zi tanlaydi, deganimizda, har birimizning o'zini o'zi tanlashini nazarda tutamiz, biroq, shu bilan birga, biz o'zimizni tanlar ekanmiz, barcha odamlarni tanlaymiz, degan gapni ham aytishni xohlaymiz"<sup>12</sup>. Biz XX asr ibtidosida – ma'rifat va fanni tanlab, xalqimizni zulmdan ozod qilish yo'lida jadid bobolarimizning qarashlarini hayotga tatbiq etishga kirishdik.

Bobning uchinchi fasli "***Xotira-qissalarda yozuvchi ijodiy biografiyasining yoritilishi***" deya ataladi. Ijodkorning badiiy olami, qiyofasi va jamiyat hayotida tutgan o'zni xususida alohida monografik planda tadqiqotlar yaratilib, ularning mazmun-mohiyati turli shakllarda kashf etilardi. Masalan, Abdulla Qodiriy fenomenini olib ko'raylik, bizda qodiriyshunoslik, qahhorshunoslik, oybekshunoslik o'z-o'zidan paydo bo'lgan soha emas. Mamlakatimiz olimlarining bunday noyob iste'dod egalarining ham ijodi, ham shaxsi, ham faoliyatiga munosib baho berarkan, o'nlab bir-biridan alohida mustaqil tadqiqotlar yaratilgani, ularning zamirida hayotning past-u balandini, mafkuraviy zug'umlar, siyosiy iztiroblarni bir-bir totgan chinakam ijodkor qiyofasi manaman deb namoyon bo'ladi. Jumladan, prof.I.Haqqul shunday yozadi: "Hozirgi paytda adabiy tanqidning qiyofasi kundankunga mavhumlashib borayotir. Uning maydoni gavjumlashish o'rniga tobora siyraklashib, bo'shab qolmoqda. Adabiy tanqidning bir zamonlardagi obro'-e'tibori va nufuzi yo'q endi. Abdulla Qahhor boshqa ishga yaramay o'zini tanqidchilikka urganlarni "har narsadan cho'chib shaqildoq chalaveradi"gan qo'rqqoq qorovulga o'xshatgan edi. "Shaqildoq" bozlikning o'rnini ham haybarakallachilik, madhiyago'ylik egalladi. Lekin ahvol bunday davom etishi mumkin emas. O'zbek tanqidchiligi qayta qad rostlashni, necha o'n yillardan buyon meros bo'lib

<sup>11</sup> Kendall P.H. The art of biography. – New York: W.W.Norton and Company, 1985 – P.127-128.

<sup>12</sup> Сартар Ж.П. Экзистенциализм тўғрисида. Рус тилидан Абдулла Шер таржимаси. Жаҳон адабиёти. 1997. №.5. –Б.182.

kelayotgan zamonasozlik, ehtiyotkorlik, dallollik singari illatlardan xalos bo‘lib, shaxdam odim tashlashni istasa, Abdulla Qahhor talab qilganidek, eng avvalo, “adabiyotimizga katta adabiyot cho‘qqisidan” qarashga bel bog‘lashi kerak. Ana shunda uning o‘zi ham yangi cho‘qqilarni zabt etishi mumkin”<sup>13</sup>.

“– Men qaysi yilda va qaysi oyda tug‘ilganimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al bog‘bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug‘ilib, yaqinlarimning so‘zlariga qaraganda, mustabid Nikolayning taxtga o‘tirgan yilida tug‘ilganman, – deb yozadi Qodiriy o‘z tarjimai holida.

Qay bir vaqt dadamdan: “Qaysi oy-kunda tug‘ilgansiz?” deb so‘raganimda, u kishi kulib, “O‘rik gullaganda tug‘ilganman. Taxminan o‘ninchi aprelda bo‘lsa kerak”, deganlari yodimda”<sup>14</sup>.

Biografik asar muallifi esa o‘sha jarayonga aniq bir haqiqatlar bilan yechim topishni, asosiysi, chalkashliklarning barham topishini ko‘zlaydi. Mana shu lavhada yozuvchi Abdulla Qodiriyning tug‘ilgan yili haqida batafsil ma‘lumotlar berib borilgan. Demak, 22 yoshlarida “O‘tkan kunlar”dek muhtasham asar yozishni boshlagan xayol va hayot og‘ushida mardona turgan, izlangan hamda quvvatini charxlagan yozuvchining ijodiy konsepsiyasini aniqlab olish muhim omil sanaladi. Chunonchi Qodiriy zakovati va iste‘dodining erta pishib yetilishi, Alloh taoloning inoyati bilan sodir bo‘lib, yuzaga chiqmoqdaki, jamiyatning ichida bo‘layotgan ziddiyatlar mana shu mezonlarni mukammal ko‘rinishga kelishiga sharoit yaratmoqda.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Biografik asarlarning sujet tarkibi va modifikatsiyasi**” deb nomlangan. Birinchi fasli “*Fabula poetikasi va sujet dinamikasi*” deb ataladi. Mazkur bobda Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek va Said Ahmadlarning avtobiografik yo‘sinda ularga atab bitilgan qator esse (xotiranoma)larda mana shu shaxsning “men”lik xususiyatini namoyon qilish tamoyillarini mualliflar o‘ta murakkab va tabiiy jarayon tarzida yuzaga chiqarganlar. Fabula har qanday ijodkor (yozuvchi)ning hayot voqeligini, hali u tayyor emas, uni qayta ishlash, tahrir qilish mezonlari bilan rivoj topadi. U sujetga aylanib, saralanib, sayqallanib, biror mantiq ifodasiga evrilishgacha bo‘lgan oraliqda xotiranoma yozuvchining shaxsiy, individual olamining manzarasi bo‘lib qolaveradi. Chunki xotirana vis hayot voqeligini tartiblashtiradi. U o‘sha voqelikni qayta ishlash barobarida, xuddi tug‘ilish – o‘lim oralig‘ida bo‘lganidek, hayotni obdon kuzatadi. Fabula poetikasi haqida so‘z borganda, avvalo, inson va ijodkor fenomeni bir yaxlit manzarani hosil qilishi tayin. Inson nimagaki intilsa, uning zamirida o‘sha voqelikning suratini tasavvur qiladi.

Roman poetikasi bilan jiddiy shug‘ullangan prof.I.Yoqubov: “G‘arbda ham badiiy matnni talqin qilish, izohlash, adabiy-nazariy asoslash va metodologik jihatdan tushuntirish hamisha dolzarb bo‘lib kelgan. Zotan, talqin qilish (matnni o‘rganilayotgan obyektning tabiatiga qarab tushinish) uning o‘ziga xos ichki belgi-xususiyatlarini ochib berishdir”<sup>15</sup>. Bu ham ana shu jarayonga o‘ziga xos tabiiylik

<sup>13</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-abdulla-qahhor-jasorati-esse.html>

<sup>14</sup> Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –Б.5.

<sup>15</sup> Ёқубов И. Бадий матн ва эстетик талқин. –Т.: Фан ва технологиялар, 2013. –Б.3.

bag'ishlaydi. Ya'ni memuarist talqinida shaxs va jamiyat in'ikosi hamisha dolzarbligi bilan muhimdir.

Mavlono Jaloliddin Rumiy aytganidek, "Agar bir jism tarkibida ohanrabo bilan mushtarak bo'lgan bir parcha bo'lmasa, u jism hech qachon ohanrabo tarafiga ketmaydi, ya'ni tortilmaydi. Ular orasidagi bir xillik yashirin bir narsadir, ko'zga ko'rinmaydi. Inson xayolidagi narsa uni o'z orqasidan yetaklaydi. Masalan, bog' xayoli boqqa, do'kon xayoli do'konga olib boradi. Faqat bu xayollar haqiqatni yashiradi. Chunonchi, bir narsaning xayoli seni o'ziga tortdi va sen u tomonga ketmoqdasan. Chunki xayol senga u narsani go'zal qilib ko'rsatgan. Biroq kelgach, pushaymon bo'lasan va o'zinga o'zing: "Buni yaxshi deb o'ylabman, aslida unday emas ekan" deysan. Shuning uchun ham xayollar ichiga kimdir yashiringan chodirlarga o'xshaydi"<sup>16</sup>. Ko'rinadiki. Rumiy shaklga ham, ma'noga ham, mazmunga ham, tasavvurga ham alohida diqqat qaratmoqda. Fabula ham xuddi shunday shaklda sujetga aylangunga qadar taraqqiy etishda, ijodkorning o'y-xayollarida yashaydi.

Janrning tabiiy va uning umuminsoniy nazariy qonun-qoidalarga tutashuvini inobatga olib, har tomonlama chuqur talqin qilish o'z oldimizda turgan muammoni to'laqonli hal qilishga keng yo'l ocha boshlaydi. Janr bir joyda qotib, deysinib qolgan jarayonning mevasi emasligini bugungi adabiyotshunoslik ham o'z oldimizda e'tirof etilgan masalalardan biri ekanligini isbotlab bermoqda. Bu haqda so'z borganda, rus munaqqidi M.M.Baxtin nazariyasida quyidagi nazariy masalalar fikrimizga aniqlik kiritishda qo'l keladi: "Olim biografik asarlarning birinchi tipini, shartli ravishda, platoncha tip deb ataydi. "Inson o'z-o'zini avtobiografik anglashiga doir bu tip mifologik metamorfozaning qat'iy shakllari bilan bog'liq. Uning mohiyatida "asl ilmni izlayotgan odamning hayot yo'li" – xronotopi yotadi"<sup>17</sup>. Bu tipga Platonning "Suqrot raddiyasi", "Fedon" asarlari kiradi. Ma'rifat va tafakkur vositasida haqiqatni topish va bu yo'l davomida o'z-o'zini anglash, asl mohiyatga yetishuv ayni tipning muhim belgisidir. Ikkinchi biografik tip esa antik yunon muhitida turli marosimlar negizida vujudga kelgan ritorik asarlar bilan bog'liq ravishda shakllangan. O'zbek adabiyotida XX asrning boshlaridan shakllangan biografik nasr modusi o'z-o'zidan tabiiy bir ehtiyoj – xalqning tushkunlik va sarosimalik kayfiyati, qahatchilik va yo'qchilikka muhtalo bo'lish jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarining o'zgaruvchanligi sabab ham bo'lishi tabiiydir.

Adabiyotshunos olim Zokir Rahimov: "O.Yoqubov tarixiy shaxslar siymosini yaratar ekan, davr muhitining murakkab va ziddiyatli qirralarini obrazlar tizimi orqali ochib berdi. Toj-u taxt kurashlarining avj olishi natijasida Ulug'bek Mirzoning iztirobli hayoti o'ta ziddiyatli va murakkab tarixiy davr fonida o'z aksini topgan. Tarixiy voqelik asarning badiiy mukammalligini ta'minlashi natijasida xarakterlarning voqealar rivojidadagi shakllanishiga zamin yaratadi"<sup>18</sup> - deb bayon qiladi, o'z tadqiqotida. Insoniyatning shu choqqacha bosib o'tgan yo'llarida juda

<sup>16</sup><https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiya-adabiyot/tasavvuf/mavlono-jaloliddin-rumiy-ichingdagi-ichindadir-parcha.html>

<sup>17</sup> Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975, стр. 275.

<sup>18</sup> Rahimov Z. Tarixiy romanda sujet va xarakter. FarDU Ilmiy xabarlar. 2022/№5. 111-bet.

katta tarixiy-ijtimoiy tuzumlar, imperiyalar, sulolalar bilan barqarorlashib, taraqqiyot sari odimlashga keng harakatlar qilindi.

Janrning nafaqat ichki rivojlanish, balki tashqi faktorlar bilan keng ko‘lamli hayot haqiqatini to‘g‘ri talqin qilish metodologiyasining ustuvorligiga borib tutashuvini ham dalolatlaydi. Ijodkor qiyofasini yaratish mahorati borasida dots.D.Toshpo‘latova shunday qarashlarni ilgari suradi:

Bir-biriga o‘tib turuvchi ikki tushuncha negizida quyidagi holatlarni qiyoslash lozim:

1. Muallif g‘oyasining ustuvorligi;
2. Muallif g‘oyasida qahramon o‘shish-o‘zgarishi;
3. Asar voqeligi va muallif konsepsiyasi uyg‘unligi;
4. Qahramonlararo sintez, o‘xshashlik, takror, tasvir va talqin mutanosibliigi;
5. Psixologik vaziyatda inson iroda yo‘nalishining kuchli va o‘jiz tomonlarida qabarib ko‘rinadi<sup>19</sup>.

Lavhaning eng e‘tiborli jihati shundaki, xotironamalar yozuvchi muallif ijodkor qiyofasini – bolalik fenomeni bilan yoritishida yanada yorqin suratlarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi M.Obidjonov shartli ijodiy kognitiv ijodiy jarayonni 4 turga bo‘lib talqin qiladi: **1. Obyektiv borliq. 2. Subyektiv tasavvur. 3. Adabiy ta’sir. 4. Yozuvchining badiiy olami**<sup>20</sup>. Bunday tasniflash xotiranoma muallifining ham uslubiy-shakliy izlanishlarini yorqin buyoqlarda gavdalantirishga keng imkon beradi.

Bobning ikkinchi fasli “**Kompozitsiyaga xos unsurlar sintezi**” deb nomlanib, unda XX asrning ibtidosida buyuk roman janrini boshlab bergan Abdulla Qodiriyning o‘z farzandi Habibullo Qodiriy tomonidan bitilgan “Otam haqida” nomli xotiranomasi, biografik janrning o‘ziga xos qirralarini tashkil qilishda eng muhim atribut vazifasini o‘tagani tayin. Habibullo Qodiriy Qodiriy shaxsi va uning insoniy sifatlarini kompozitsion butunlikda tashkillantirishga kirishar ekan, avvalo, fakt va materiallarni saralashi, ularning haqqoniyligini ta’minlashga jiddiy e‘tibor bergani ayni haqiqat bo‘lsa, ajabmas! Chunki Qodiriy haqida mana shu muhtasham obida orqali o‘zbek kitobxonlari diqqat bilan tanishib chiqqan, uning ham shaxs, ham yozuvchi, ham ota sifatidagi ulug‘vor fazilatlarining guvohi bo‘lgani tayindir. Bu esa badiiy kompozitsiyada o‘zining ifodasini topgani, kompozitsion birliklarning ijodkor shaxsini yaratish mahorati bobidagi izlanishlarni his qilgani fikrimiz dalilidir. Dunyo adabiyotida kompozitsion tashkillanish asosan, voqelikning uch o‘lchamli: **kecha-bugun-ertaga** tarzida namoyon bo‘lishi hamda mana shu uch ta o‘lchamda yozuvchi (xotirnavis bo‘ladimi) o‘zligini, boringki, badiiy mahoratini namoyish qilishga e‘tibor qaratganligi ustuvor vazifalardan biriga aylangan H.Qodiriyning “Otam haqida” nomli xotiranomasida badiiy kompozitsiyaning o‘ziga xos qirralarini namoyon etgan talay o‘rinlarni – silliqlash yo‘sinida yuzaga chiqqanligining shohidi bo‘lamiz. Badiiy asar kompozitsiyasi chuqur va puxta o‘ylangan g‘oya va mavzu birligidan tarkib topar ekan, shakl va mazmunning asosiy

<sup>19</sup>Тошпўлатова Д. Замонавий ўзбек насрида муаллиф онги ва уни ифодалаш шакллари. Филолол.фан.фалсафа.док. –Жиззах, 2021. –Б.83.

<sup>20</sup> Обиджонова М. Инглиз ва ўзбек фантастик ҳикоячилиги: оригинал ва муштарак тенденциялар. Филол. фан.бўйича фал.доктори. автореф. –Т., 2022. -Б.16.

o'lvohlaridan biri ekanligi ayonlashadi. Biz tadqiqot ishimizda Habibullo Qodiriyning xotiranoma yozishdagi quyidagi jihatlarni teran ilg'adik.

1. Muallif badiiy kompozitsiyani yaratishda sujet voqeligini to'xtatib qo'yib, asosiy voqelikdan chalg'ish, lirik kechinma va kiritma voqealarga ruju qo'yishga odatlangani;

2. Voqelikning umumiy oqimida muallif naqoratlarga zo'r e'tibor bergani hamda badiiy mahoratning yetishmasligi, ortiqcha tafsilotlarga barham berish maqsadida ota kundaliklaridan misollar keltirish;

3. Sujet va kompozitsion birliklarni namoyon qilishda ayrim ortiqcha tafsilotlarga o'tib ketish uslubining paydo bo'lishi;

4. Xotiranomaning mavjud andozalariga o'z uslubiy quvvati darajasidan turib yondashishi, ayrim jihatlarni diqqat bilan kuzatsangiz, yuqoridagi nuqsonlarning bo'rtib ko'rinishi tabiiyligi.

Demak, sanab o'tilgan jihatlar quyidagi **“Julqunboy kasal”** bobidagi misollarda ham aniq ko'zga tashlanadi. Badiiy portret timsolida har uchala yozuvchi ham ushbu qirralarni mahorat bilan oydinlashtiradi:

1. Habibullo Qodiriy – Abdulla Qodiriy xarakteriga badiiy chizgilar berar ekan, uning nafaqat ota, balki haqiqatgo'y bir suhbatdosh, yo'l ko'rsatuvchi mayoq sifatidagi zakiy bir donishmand zot ekanligini ham chizib beradi. Otaning vazifasi oilada yaxshi xulqli qilib tarbiyalashi bilan, ko'cha-ko'yda, mahalla-guzarda odamlar bilan muloqot qilganda qanday yo'sinda ish tutishini farzandlariga uqtirib ketganligida namoyon bo'lmoqda;

2. Zarifa Saidnosirovaning xotiralarida Oybekning chinakam mehridaryo fazilatlarini bilan, yuragidagi ulkan va azim muhabbatining she'rlariga ko'chib o'tgan nozik tovlanishlarigacha keng epik planda tasvir etilishi hamda daryodek jo'shib oquvchi suvlarga qiyos etilgan odamiyligi chuqur ma'noni o'zida jamlay olganligi bilan qadrlidir.

3. Kibriyo Qahhorova – Abdulla Qahhorning badiiy portretiga chizgilar berganida hikoyalariga ko'chib o'tgan to'g'ri so'zlik bilan, kamsuqumlik fazilatini namoyon qiladi. Unda ham Qahhor, ham oilaparvar, ham bir donishmand yozuvchi qiyofasi ko'z oldimizda yorqin bo'yoqlarda gavdalanadi.

Mana shu jihatlar har uchala muallifni birlashtirib turuvchi umumiy xususiyatlardan biridir.

Bobning uchinchi fasli **“Badiiy shartlilik va biografik metod uyg'unligi”** deb ataladi. Jahon adabiyotshunosligida biror badiiy janrning nazariy qonun-qoidalari ma'lum ma'noda shartlanganlik darajasi bilan o'zining yelkasidagi missiyasini bajarishga kirishadi. Shu ma'noda, badiiy shartlilik atamasi va uning ildizlari haqida so'z borganda muammoning izohiga birinchi to'xtalib o'tish joiz, deb o'ylaymiz. Negaki, shartlilik har qanday janriy-kompozitsion fragmentlarning umumiy yig'indisiga borib tutashadi. Chunonchi, “...Shartlilik” atamasiga “Adabiyotshunoslik ensiklopedik lug'ati”da quyidagicha ta'rif beriladi: “Badiiy shartlilik ko'p qirrali, ko'p ma'noli tushuncha, badiiy tasvirlash tamoyili bo'lib, badiiy obrazning tasvir obyektiga teng emasligini ifodalaydi. Hozirgi estetika fanida obrazlarning haqqoniyligi, badiiy to'qima ochiqligi va uning anglanganlik darajasi

(turli tarixiy davrlarda)ga qarab, birlamchi va ikkilamchi shartlilik farqlanadi”<sup>21</sup>. Demak, muammoning ko‘lami va ildizlariga teran nazar tashlaydigan bo‘lsak, XX asr boshlarida A.Fitratdan to hozirgi adabiyotshunoslargacha masalaning u yoki bu jihatlariga turlicha baho berib, talqin qilishgan. Izzat Sulton “shartlilik”ni “badiiylik kriteriyalari” deb nomlasa, prof. D.Quronov – kommunikativ vosita, muallif va o‘quvchi orasidagi estetik vobastalik sifatida baholaydi. Mana shunday qarashlar davrlar osha turlicha yondashilib kelingan. Arastu “harakat va holat”ning uyg‘unligi deb talqin qilsa, yana boshqa nazariyotchilar “ilhom va iste’dod”ning uchrashgan nuqtasidan olingan zavq deb tushuntiradilar. Adabiyotshunos olim, professor A.Nosirov badiiyat xususida quyidagi mulohazalarni idroklaydi: “Xotira uzvi inson faoliyati uzluksizligini jilvalantiradi. Odamzod iroda yo‘nalishi o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Uning fojiasini anglash uchun hayot solnomasi qirralarini muayyan nuqtaga yig‘ish lozim”<sup>22</sup>, – deya ta’kidlaydi. Binobarin, xotirana vis inson ruhiyatini va shaxsiyatini juda chuqur bilib ish tutishiga ishora qilinmoqda.

Biografik janr tabiatidan kelib chiqadigan bo‘lsak, janrning shartlilik qoidalari sabab va oqibat falsafasining ajralmas halqalaridan bino bo‘lgan – hayotiy voqelik ichkarisida ro‘y bergan davriy silsilalar deb anglashish hodisasi namoyon bo‘ladi. Buni boshqacha talqin qilganimizda: memuar-xotirana vis hayotda bo‘lib o‘tgan voqelikka faktlar negizida badiiy bezak berish, hamda uning estetik-psixologik, falsafiy nuqtayi nazaridan anglatish manerasi ham muammoga bir qadar yaqinlashishga imkon beradi. L.Tolstoy bilan F.Dostoyevskiy, A.Kamyu bilan F.Kafka badiiy tafakkurida – yolg‘izlikning umuminsoniy in’ikosi o‘laroq turfa xarakterlar negizida taraqqiy qildi.

**Ideal va badiiy yaxlitlikning shartlangan sintezi.** Yozuvchi va munaqqid N.Eshonqul inson(yozuvchi yoki ijodkor)ning xotirasida *“uxlab yotgan”*, *“ong osti hislari”*ni talqin qilganida mana shu masalaga kirib borgan qatlamlarni anglash mumkin bo‘ladi. Habibullo Qodiriy o‘zining tahsil olib yurgan paytlaridagi bir qiziq voqeani xotiranomada quyidagicha ta’riflaydi:

“1934-1936-yillarda Medrabfak (meditsina ishchilar fakultetida) o‘qib yurgan chog‘larimda, bir kuni til-adabiyot o‘qituvchimiz Odil Shokirov dars payti “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlariga to‘xtalib: “Otabek, Kumush, Anvar, Ra’nolar ideallashtirilgan tiplar degan mulohazani aytdi. Bu mulohaza menga erishroq tuyuldi. Kelib dadamga so‘zladim... U kishi kuldilar va mening jiddiy javob kutayotganimni sezib, batafsil javob qildilar:

– Xalq orasida bunday tiplar juda ko‘p... lekin ularning hammasini ham asardagi kabi aynan deb bo‘lmaydi. Shaxs asardagi qahramonga qanchalik o‘xshab ketmasin, baribir unda qandaydir kamchilik, nuqson bo‘ladi. Ba’zan kitobxon asarni berilib o‘qiydi-da, undagi qahramonni o‘z atrofidan izlab ko‘radi, aynan o‘xshashini topa olmagach, umidsizlanadi, ideallashtirilgan tiplar deb, xulosa chiqaraveradi... yozuvchi esa ko‘plab shaxslarda ko‘rgan-kuzatgan, tiplardan o‘ziga keragini tanlab oladi, umumlashtiradi, biron qahramonda mujassamlashtiradi. Biroq buning shartlari bor, tiplar yasama, sun’iy bo‘lmasligi, xalq orasida birov bo‘lmasa, birovda

<sup>21</sup> Литературный энциклопедический словарь. Под общей редакцией: В.М.Кожевникова и П.А.Николаева. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – С. 458. (мазкур сўзликни О.В.Шапошникова ёзган).

<sup>22</sup> Носиров А. Одил Ёқубов романлари поэтикаси. –Т.: Фан, 2012. –Б.27.

ko‘rilgan, tabiiy, mantiqqa to‘g‘ri keladigan kitobxonni ishontiradigan bo‘lishi shart”<sup>23</sup>.

Badiiy shartlilik ikki yo‘sinda amalga oshirilgan bo‘lib, birinchidan, H.Qodiriy o‘ziga mansub voqelikning xotirasida qayta uyg‘ongan ong osti hislarini dadasi va uning ijodi bilan bog‘liq voqelikka ulanishini ko‘zda tutsa, ikkinchidan davrning ziyolilari nazdida A.Qodiriy asarlaridagi obrazlarning nechog‘li tipik xarakter darajasiga ko‘tarilganligini dalolatlash yo‘lidan boradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Biografik asarlarda jamiyat va shaxsiyat muammosi talqini”** deb nomlangan. Bobning **“Ijtimoiy voqelik va ijodkor shaxsiyati”** deb nomlangan faslida ruhiy tahlilning asar qurulishida tutgan roli haqida so‘z yuritiladi. Ayonki, badiiy asarda jamiyat va shaxsiyat masalasi nihoyatda dolzarb va o‘ziga xos halqani tashkil qiladi. Unda muhit va jamiyat orasida kechayotgan ijtimoiy-madaniy munosabatlar yig‘indisi o‘z aksini topadi. Shaxs xarakteri muammosi bilan jiddiy shug‘ullangan K.G.Yung ta’limotida “shaxs botini bir-birini to‘ldirib turadigan uch qatlamdan iborat: birinchisi ego, ya’ni idrok, ikkinchisi, shaxsiy ong osti qatlami, uchinchisi insonning shaxsiy kechinmalariga bog‘liq bo‘lmagan obyektiv ong osti qatlami...”<sup>24</sup>

L.Ginzburg memuarist A.I.Gersen: “Memuarist Gersen oldida u ayta olishi mumkin bo‘lgan odamlar emas, balki aytmasa bo‘lmaydigan odamlarni tanlashdek qiyin vazifa turardi. Tanlov tamoyillari avvalambor Gersenning tarixiy qarashlari va kitobdan ko‘zlangan ijodiy niyat bilan belgilanadi. Hayotda Gersen nafaqat “estetik jihatdan muhim”<sup>25</sup> – deya ta’kidlasa, M.M.Baxtin: “Muallif va qahramonning hayoti va uning tutgan o‘rnini uch xil tasniflash mumkin. Birinchisi shuki, yozuvchi o‘z qahramonlari ustidan hukmronlik qila olmaydi, uni o‘z yo‘rig‘ida boshqara bilmaydi, qahramon o‘z xatti-harakati bilan yechim tomon boradi. Ikkinchidan, muallif qahramonlarini o‘z idealiga to‘laligicha bo‘ysundirib olgan bo‘ladi, ular ko‘pincha yozuvchi istagini yuzaga chiqarish bobida harakat qiladilar. Uchinchi jihat shuki, qahramonning o‘zi muallifga evrilib, go‘yoki sahnada rol ijro qilayotgandek o‘z shaxsiy hayoti haqida o‘zidan-o‘zi estetik mulohaza yurita boshlaydi”<sup>26</sup>. Binobarin, gap muallif va qahramon haqida borar ekan, mana shu mavjudlik jumbog‘ida – o‘lim sari borayotgan har qanday obrazning tub mohiyatida estetik qamrov hukm suradi. Habibullo Qodiriy “Otam haqida” nomli xotiranoma asarida ana shu jihatlarni sinchkovlik bilan qog‘ozga tushirib, Abdulla Qodiriy fenomenini alohida bir olam sifatida, tushuntirmoqchi bo‘ladi. Badiiylik modusi – ruhiy va estetik tanlov bilan yanada yaqqol ranglarda namoyon bo‘ladi. “Otam haqida”gi xotiranomada Abdulla Qodiriy fenomenini quyidagi ko‘rinishda talqin qilish ishonchni oqlaydi:

*1. Garchi xon zamonidan olib yozilgan “O‘tkan kunlar” romanining asl mohiyatida millat taqdirida bo‘lishi mumkin bo‘lgan bashoratli sestembutunlik, milliy ong va tuyg‘uda hamon kezib, biz bilan baqamti yashayotgan qadriyatlar sintezi ifodalanishida;*

<sup>23</sup> Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –Б.95-96.

<sup>24</sup> Назар Эшонкул. Ижод фалсафаси. –Т.: Akademnashr, 2018. –Б.50.

<sup>25</sup> Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. –Л.:Художественная литература, 1977. –С.12.

<sup>26</sup> Бахтин М. Эстетика словесного творчества. Искусство, –М.,1979. –С.18-23.

2. *Habibullo Qodiriyning o'z otasining qilmish-qidirmishlari, kechmishlari-yu, iztiroblari, oilaparvarligi yo'sinida olib borgan faoliyati, farzandlariga mehr-u muhabbati, mutolaa va o'qish orqali inson o'zini tarbiya qilish prinsipi qabariqligida;*

3. *Har ikkala roman to'qimasida asl haqiqatning "sirlar pardasi" orasida olib o'tilishi, ularni bugun ham o'z boshidan kechirayotgan zamondosh ongi va saviyasi nuqtayi nazaridan "hazm" qilishi muhimligida;*

4. *Xotiranomada Qodiriyning ideallashtirilishida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan SHAXS haqidagi bahosining bir-biriga o'xshab tasvirlanishi, mahoratning ana shu qirralariga borib tutashuvida ekanligi yorqin rangin lavhalarda o'z ifodasini topgan.*

Abdulla Qodiriy shaxsiyati nafaqat romanlarida, hikoya va qissalarida ham manaman deb, bo'y ko'rsatib turibdi. Jamiyat esa Qodiriy kabi zakiy yozuvchilarga o'z eshigini ochib qo'ygani yo'q edi. Axir, qoq ikkiga bo'lingan millat ziyolilari, Haq taoloning farmoniga quloq solishga izn bermas, korchalonlar kundan kun urchib borar, bularning niyatlari o'sha davr iste'dodlarini "gumdon" qilishga yo'naltirilgandi. Ichimizdan chiqqan sotqinlar sabab o'nlab chinakam ziyolilar, yozuvchilar hibsonalarga tashlandi. Sibirga surgun qilindi, hayoti va sog'liklariga putur yetkazildi. Insonning ma'nan tubanlashib borayotganini oldindan sezgan Qodiriylar avlodi ko'ngillariga kelgan eng pokiza vijdoni bilan o'lmas asarlar yozib, korchalonlarning yuzlariga "shapaloq" tortishga ahd qilishgandi. Bular o'z taqdirining qaysi tomonga ketayotganini bilsalar ham, haqiqatgo'yliklaridan bir nav chekinmadilar. Kuchli iymon va zehniyati bilan adolat bayrog'ini baland ko'tarishga ahd etishgandi. Ana shu shaxsiyatning tubanlar qo'liga topshirilishi o'zbekning boshiga "qora kunlar" mislsiz yog'ilyotganini anglatardi. Habibullo Qodiriy bularni o'z bayonida katta sog'inch hamda qayg'u bilan ifodalaydi.

Bobning ikkinchi fasli ***"Epistolyar janr qahramon ruhiy-ijtimoiy olamini aks ettirish omili sifatida"*** deb nomlangan. F.f.d.M.Qo'chqorova ta'kidlashicha: "Dunyo adabiyotida "uchburchak maktub romani" xususidagi maqolasida quyidagi mulohazalarni keltirib o'tadi: "Dunyoga mashhur nemis yozuvchisi I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asari bejiz boshdan-oyoq maktub janri asosiga qurilmagan. Xuddi shuningdek, avstriyalik adib Stefan Sveygning "Bir ayol maktubi" qissasi va Frans Kafkaning "Otamga xat" essesi ma'lum badiiy maqsad, badiiy shakl imkoniyatlariga ko'ra aynan maktub asosiga qurilgan. Gap shundaki, ijodkor epik tur janrlarida maktub janridan foydalanar ekan, bunda "xat janri orqali murojaat qilishda muallifning ruhiy kechinmalarini chin qalbdan zo'r kuch bilan izhor qilish imkoniyati tug'iladi". Shuning uchun ham ba'zan yozuvchi epik asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa, ba'zida esa asar tarkibida qahramonlarning bir-biriga yozishma maktublarini asarga ilova qiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, xat shakli chet el va g'arbiy Yevropa adabiyotida alohida adabiy janr sifatida keng tarqalgan. Rus adabiyotshunosi Lidiya Ginzburg "Boris Pasternak xatlari" deb nomlangan essesda maktub janrining ahamiyati haqida shunday e'tirof etadi: "Insoniyatning muloqot vositalaridan biri bo'lgan xat (maktub) turfa ma'noga ega. Unda axborotni jamlash imkoniyati mavjud, mulohazani bayon etish, emotsiya,

qiziqishlarni ifoda qilishi mumkin”<sup>27</sup>. Mazkur keltirilgan manbadan anglashiladiki, biron bir adabiy hodisa negizida yana bir muhim janrning simfonik rivoji paydo bo‘lmoqda. Xuddi lirik she‘r va lirik qahramonni o‘quvchi qanday kashf qilsa, o‘zining qurbi idrokida, quvvai hofizasida tasavvur qilish manerasini ham shakllantiradi. Maktublar ana shu tamoyilning hech bir takrorlanmas, o‘ylar, mushohadalar, takliflar va tavsiyalar, chinakam do‘stona tanqidlarni ham muvofiqlashtiruvchi hozirjavob janrligi ayonlashadi.

Shuningdek, Alisher Navoiy maktublari haqida so‘z borganda shoir hamda yozuvchilar haqida ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz. Xotiranomalarda har bir muallif o‘zlarining dard-u iztiroblari, sog‘inch-u nolalarini jamiyatdagi uzil-kesil o‘zgarishlar bilan yuzaga keltiradi. “Alisher Navoiyning didaktik g‘oyalarga ega fikrlari insoniyat kamoloti uchun g‘oyatda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoq joiz. Shoirning pand-nasihatlari uning nafaqat nazmiy asarlari, balki nasriy asarlarida ham o‘z aksini topganligini manbalar asosida qayd etish mumkin. Uning turkiy tilda yozilgan “Munshaot” asari fikrimizning dalilidir. Unda Alisher Navoiyning o‘z davrida ma‘lum va mashhur shaxslari bilan olib borgan yozishmalari jamlangan va bu asar nafaqat tarixiy, balki badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Shoirning fors tilida yozgan maktublari ham mavjud, biroq ular turkiy tilda yozilgan maktublar singari yaxlit majmua sifatida jamlanmagan”. Binobarin, shoirlarning ilm va ijod. Jamiyat va uning muammolari xususida yozishmalari ham ko‘p narsalarning sabab hamda oqibatlarini, ildizlarini anglashimizga yordam beradi. Bunday paytda inson har bir vaziyatga ishonarli baho beradi. Ayniqsa, shoir ruhiyatidagi, shaxsiyatidagi, odamlarning unga bo‘lgan munosabati, amaldorlarning tazyiqlari ham obrazli turda ifoda etilishi mumkin.

Dots.R.Ibrohimova shunday yozadi: “Xat o‘qishni hammamiz yaxshi ko‘ramiz, ba’zida boshqalarga tegishli maktublar bo‘lsa ham. Bu holat, ayniqsa, tadqiqotchilar, tarixchilar, adabiyotshunoslar uchun zarurat. Chunki xatlar, ayniqsa, mashhur shaxslar o‘rtasidagi yozishmalar tarix sahifalarini jonlantirishda, fikr yuritilayotgan shaxsga oid ma‘lumotlarni oydinlashtirishda, tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan ayrim zarur chizgilarni to‘ldirishda ilmiy qimmatga ega... Tarix Navoiy va Jomiyning o‘zaro yozishmalari, Pushkin, Turgenev, Dostoyevskiy, Oybek va yana ko‘plab mashhur shaxslar yozgan xatlarning guvohi bo‘lgan. Bunday maktublar umumxalq mulkiga aylanishi lozim. Bugungi kunda texnika taraqqiyoti, telefon, telegraf, elektron pochta epistolyar janrni tashkil etuvchi maktublarga bo‘lgan ehtiyojni so‘ndirdi, kishilar bir-birlariga xat yozishdan uzoqlashdi, degan fikr ustunlik qiladi. Bizningcha, mohiyati emas, balki uning ko‘rinishi o‘zgardi, xolos...”<sup>28</sup>. Olimaning ta’kidlab o‘tganidek, maktublar mazmuni va ko‘lami nuqtayi nazaridan bir-biridan tubdan farq qiladi. Abdulla Qodiriy vafotidan keyin yozilgan, “O‘tgan kunlar” romani qahramonlariga sevib mehr qo‘ygan maktublar ham yozuvchi bilan bevosita asar orqali muloqot shakli deb tushunish mumkin. Shunday maktublardan biri Lyuda Nelomnyashe ismli yosh kitobxon qizdan 1961-yillarda

<sup>27</sup> Кўчқорова М. Мактубалар – қалб кўзгуси. //Жаҳон адабиёти. 2009. №11.

<sup>28</sup> Иброҳимова Р. Аёлга мактуб// ЎзАС. 2007. №.10.

kelgani, maktubda ham asar muallifiga rahmatnoma, ham roman qahramonlariga bir o'quvchi-kitobxon o'laroq munosabati tasvirlanadi:

*“Mana qo'limda “O'tgan kunlar”ning so'nggi sahifasi... Uni ikki kun o'qidim. Tasvirlanmish “voqea”ning ishtirokchisi bo'ldim.*

*Abdulla Qodiriy! Bilasizmi, kitobingizning sevimli qahramonlari biridan judolashish menga naqadar og'ir! Voqea o'tmishdir, shunday esa-da, u mening yuragimda sira-sira unutilmas taassurot qoldirdi va ishontira olamanki, bu taassurot hamma kitobxonlarda ham birdaydir... Shu kungacha menga nomingiz tanish emasdi. Endi “O'tgan kunlar”ning har bir satrini, umuman asarlaringizning hammasini qayta-qayta o'qishga tayyorman”<sup>29</sup>.*

Mazkur maktubning samimiy bir o'quvchi tomonidan yozilishi xotiranomaning rang-barang qirralarini namoyish qiladi. Unda ham davr, ham yozuvchi pozitsiyasiga munosabat, ham bir o'quvchi o'laroq shaxsiy mulohazalari epistolyar janrning qamrovi kengayishidan dalolat beradi.

Bobning uchinchi fasli **“Xotiranomalarda hayotiy ziddiyat: shaxs va muhit talqini”** deya ataladi. Badiiy psixologizmning sujet va kompozitsiyaga bevosita ta'siri, avvalo, xarakter ruhiyati va voqelikning yuzaga chiqish fragmentlari bilan o'lchanadi. Chunki voqelikning shiddatli oqimi, badiiy-tasviriy vositalar tarkibida o'zgarib, turlanib turishi tabiiydir. Voqelikning bu tarzda turfalanishi, sujetning yechim tomon siljishida qo'l keladi. Kulminatsion nuqtalarda ham, voqelikning joriylanishida ham hayotiy ziddiyatlar avj nuqtalariga chiqadi. Masalaning nazariy qonun-qoidalariga diqqat qilinsa, hayotiy ziddiyatda – muallif va yozuvchi, kitobxon va jamiyat a'zolarining to'qnashuvi namoyon bo'lib, asl haqiqatning mavjud faktlar bilan to'yintirilishida muhim atribut vazifasini o'taydi. A.Qodiriy asarlarida psixologizm muammosi bilan jiddiy shug'ullangan prof H.Umurov qayd etishicha “Psixologizmning analitik prinsipi XIX asrda G'arbiy Yevropa va rus adabiyotida (Stern, Stendal, Lermontov) yuzaga kelgan bo'lib, bu prinsip L.N.Tolstoy tomonidan juda rivojlantirildi. U bu prinsipning hali ochilmagan qirrasini - “qalb dialektikasi” shaklini kashf qildi. Hayotning har xil tomonlarini badiiy aks ettiruvchi, bir-biri bilan dialektik aloqada bo'lgan epika va psixologizm (tashqi koinot bilan ichki koinot)ning mustahkam uyg'unligi va uning go'zal ifodasiga erishdi. Garchi rus adabiyotida analitik prinsip L.N.Tolstoydan oldin yuzaga kelgan bo'lsa-da, unda qahramon psixologiyasi harakatda aks etadi, uning xatti-harakatlarida fikrlar va tuyg'ular oqimi beriladi. Asar qahramonlari kechinmalarini muallif (boshqaruvchi)gina emas, balki qahramonlarning o'zlari ham o'z hissiyotlarini, hayotiy tushunchalarini analiz qiladilar. Lekin bu tamoyil faqatgina Pechorin obrazida namoyon bo'ladi, xolos”<sup>30</sup>. Haqiqatdan ham, H.Umurov psixologizm prinsiplarini keng miqyosda talqin qilib, o'zbek romanchiligida bo'y ko'rsatayotgan shakl-u shamoyillarni sinchiklab o'rganadi.

Badiiy xarakter yozuvchi yoki san'atkorning eng muhim iztirob va intilishlari hosilasida yuzaga keladigan murakkab jarayon ekanligi barchamizga ma'lumdir. Badiiy xarakter haqida rus olimlaridan M.Baxtin, Yu.Borev, V.Xalizev, A.B.Yesin,

<sup>29</sup> Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. -Б.114-115.

<sup>30</sup> Умuroв Х. Ўзбек романида психологизм принциплари, шакллари ва воситалари. –Т.: Турон-иқбол, 2011. – Б.239.

L.I.Timofeyev, N.D.Tamarchenko monografik tadqiqotlari, o'zbek adabiyotshunosligida M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov, T.Boboyev, E.Xudoyberdiyev, U.Normatov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, S.Meliyev, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karimov, U.Jo'raqulov singari olim va munaqqidlar asarlarga munosabat bildirib, ijodkorlarning xarakter yaratish mahoratiga to'xtalganlar.

Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" xotiranomasida badiiy konflikt va yozuvchi ruhiyatidagi uzil-kesil o'zgarishlar tom ma'nodagi Qodiriy fenomenining ochqich kaliti hamdir. Masalaga zimdan nazar tashlaganimizda bu masala yaqqol ko'zga tashlanadi:

"Bir vaqt (vafotidan bir yil burun) men munosabati kelib, Oybekning uyiga bordim. Bu galgi uchrashuv dastlabki uchrashuvdan so'ng o'ttiz ikki yil so'ng edi. Razm qo'yib o'tirib yozuvchining siymosida shunday tafovut sezdim; endi, yozuvchining sumbatdek qomati hiyla cho'kkan, etlari qochib, go'yo suyaklari yo'g'onlashganday ko'rinar edi. Momiqdek chiroyli yuzlariga ajinlar tushgan, bir-yarim oq oralab majnunona o'sgan sochi ustiga qo'ndirilgan chust do'ppisi endi unga yarashmagandek edi. Ko'z qarashlari, xatti-harakatlari yanada ohistalashib, salobat kashf etgan edi. Kechirgan asabiy xastaligi asorati bo'lsa kerak, uning so'zlarida ham tutilib so'zlash holati sezilar edi... Suhbatalashib o'tirib, Qodiriy ni esladik... Oybek Qodiriy bilan ko'p muloqotda bo'lib, tabiatini bir muncha yaxshi bilar edi. So'z urinib, "Abdulla akam o'z so'zli edilar..." deb kuldi"<sup>31</sup>.

Mazkur lavhada Habibullo Qodiriyning dadasining Oybek shaxsiga bergan ta'rifi, muloqotlari haqida so'z borarkan, ayni shu hayotning achchiq-chuchugini totgan insonlarning hayotiy ziddiyatlarga qaramasdan ijod bilan mashg'ul bo'lganliklarini tushunib olishimiz mumkin. Chunki Oybek hayot zarbalaridan ko'p aziyat chekkan shaxs sifatida tarixda boshqacha iztirob bilan ham eslanishishi tabiiy. Oybekni tergov qilish uchun olib ketgandir deb o'ylaydi. Biroq o'sha ministr Oybekni "o'zlariga quloq, atrofdagi adiblarning, shoirlarning gaplarini yetkazib turuvchi" qilib ishga olmoqchi bo'ladi. Bu gapga Oybekning javobini qarang:

Hayotiy ziddiyatlar sog'lom Oybekning ruhiy-ma'naviy va asabiy olamini parchalab, o'zining chirpirak osmonida uchirishga qodir muttaham amaldorlarga serob ekanligini taqozo etmoqda. Oybek ana shu aziyatlar, iztiroblar og'ushida uzoq xastalanib, yigirma yillar betoblikni boshidan o'tkazdi. Oybek bunday vaziyatlardan mardlarcha chiqib keta olish qobiliyatiga ham ega edi.

Badiiy konfliktning adabiyotshunoslik ilmida uch xili borligini qayd etishadi:

**1. Xarakterlararo konlikt. 2. Qahramon va muhit konflikti. 3. Ichki (psixologik) konflikt.** L.N.Tolstoy bu haqda ushbu fikrlarni bildirib o'tgan edi: "San'at hamisha qarama-qarshiliklar bo'lgandagina maydonga keladi, bu kurashning yo o'zginasi tarzida yoki kurashning in'ikosi tarzida bo'ladi..."<sup>32</sup> Haqiqatdan ham, har qanday to'qnashuvning ro'y berish vaqti, uni yuzaga keltiruvchi ijtimoiy omillar, sabab va oqibat birligida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Xotiranomalarda xronotop va uning o'ziga xos xususiyatlari**" deb ataladi. Bobning "*Makon va zamon bilan bog'liq*

<sup>31</sup> Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –Б.177-178.

<sup>32</sup> Толстой Н.Л. О литературе. "Советской писатель", М., 1956. –С.287.

*muammolar tahlili*” deb nomlangan faslida badiiy asar (epik, lirik, dramatik) janr yozilgan davrni makon hamda zamonda ro‘y bergan voqelik (sujet) tayin etadi. XX asrning ibtidosida zamon evrilishlari ro‘y berayotgan juda qaltis davrlar edi. Ijodkorlar bor iste’dodi bilan o‘z davrining “orzulari, umidlari, iztiroblari”ni badiiy asarga muhrlab, xalqning savodli bo‘lishiga qattiq bel bog‘laydi. Bunday vaziyatda inson har qanday sharoitni chegaralab olishi tayin. Ertangi kuniga ishonchning sustligi, vaqtning har bir yozuvchi qalbida muhim qoida, fan va ta’limni isloh etishga jur’atida ham namoyon bo‘lgandi. 30-yillarga qadar olib borilgan keskin ziddiyatli siyosat natijasida, Vatan sarhadlari chegaralanib, Ulug‘ Turkiston parchalanib, xalqning og‘ir sharoiti bilan haqqoniy qiziqadigan, tarix, avlodlar taqdiriga befarq bo‘lmagan jadidlarga “qora kunlar”ni solish ishlari anchayin kuchaygandi. Buni tirik guvohi bo‘lgan A.Qodiriy, Fitrat-u Cho‘lponlar, A.Qahhor-u Oybeklar taqdirida ham yaqqol his etish mumkin. Ana shu og‘riqli vaziyatlarda inson irodasining nechog‘li muhimligi davr dolg‘alarini o‘z asarlarida bayon etgan adiblar timsolida yanada teranroq anglaydi kishi.

Prof.U.Qosimov: “Adabiyot va san’atning oliy maqsadi va insonparvarlik mazmun-mohiyatini namoyon etib, necha asrlarki jahon she’riyatining porloq sahifalarini bezab turgan bu hikmat nuqralarining teran ma’no va shakli, vazni va hatto hijolari bilan qofiyalanishi ham bir-biriga monand va hamohangligi tasodifiy emas. Ular Sa’diy va Navoiyning yuksak insonparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan maslak va orzularining mushtarakligidan yorqin dalolat berib turishi bilan birga, ayni vaqtda, mazkur shoh baytlar adabiyot va jamiyatning mangu muammolarini yoritishda ularning yakdil, hamfikir ekanligini ko‘rsatib turishi bilan ham e’tiborli”<sup>33</sup>. Munaqqid har ikki daho haqida fikr yuritarkan yuksak mahorat egalari ekanligini daolatlaydi. Shu boisdan ham, Oybekning “Navoiy” romani yozishga kirishishi ham tabiiy edi.

Rus munaqqidi M.M.Baxtin qayd etganidek: “Badiiy asarda makon va zamon muammosi, garchi unga qadar ma’lum darajada o‘rganilgan bo‘lsa ham, bevosita “xronotop” termini rus olimi M.Baxtin tomonidan o‘tgan asrning 30-yillarida adabiyotshunoslikka tatbiq etilgan. “Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makonlararo uyg‘unlikni xronotop (so‘zma-so‘z tarjimada makon-zamon degan ma’noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida (Eynshteynning) nisbiylik nazariyasi negizida qo‘llab kelindi. Istilohning biz uchun, matematikada qo‘llanadigan, maxsus tushuncha sifatida ahamiyati yo‘q. Uni adabiyotshunoslikka (tom ma’noda bo‘lmasa ham) istiora o‘laroq qabul qilamiz. Biz uchun muhimi, bu o‘rinda istilohning zamon va makonni uyg‘un holatda (zamonning, makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir. Xronotopni biz adabiyotdagi shakl-mazmun kategoriyasi sifatida talqin qilamiz”<sup>34</sup>. Darhaqiqat, Mixail Baxtin talqinidagi badiiy xronotop sujet poetikasida xarakter va muhit qiyofasini to‘laqonli idrok etishga katta zamin yaratadi. Shu ma’noda, badiiy makon sujet va kompozitsiyani bir-biriga to‘laqonli bog‘lab turuvchi adabiy kategoriyalardan biriki,

<sup>33</sup> <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/usmonjon-qosimov-navoiy-va-sadiy.html>.

<sup>34</sup> Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе (Очерки по исторической поэтике) / В кн.: Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975, стр. 234.

uni muallif nuqtayi nazari bilan ham to'ldiruvchi ahamiyat kasb etishi mumkinligi sinalgan hodisadir.

Psixoanalitiklar ijodni ongsiz hislarning ong qatlamiga qalqib chiqishi, deb baho beradilar. Ilhom aql bo'g'ib qo'ygan, aqliy faoliyat to'xtatib qo'ygan ong osti hislarining birdan yuzaga qalqib chiqishidir. Buyuk ijodkorlar ong osti hiskechinmalarining yuzaga qalqib chiqishini oddiy ko'nikmaga aylantirgan, ongli faoliyat va ong osti kechinmalari muvozanatini saqlay olgan kishilardir. Psixoanalitika fani inson ichidagi "men"ni izlar ekan, u ruhiy dunyodagi shu ruhiyatga xos bo'lgan "men"ga duch keladi. Bu "mif"lar o'zining ruhiy dunyosiga ta'siri jihatdan ilk ajdodlarning miflardan deyarli farq qilmaydi<sup>35</sup>. Haqiqatdan ham, biografik vaqtning makonda yuzaga kelishi, ong osti hislaridagi o'ykechinmalarining tayyor bo'lguniga qadar bosib o'tilgan yo'l oralig'ida sarhisob qilinganidan keyingi hosiladir. Ana shu makondagi bo'lib o'tgan voqelik o'z-o'zidan namoyon bo'lmaydi. Uning uchun qulay fursat va rosa pishib yetilgan vaqt nihoyatda zarur ekanligi ayonlashadi. Abdulla Qodiriy yashagan davr – jaholat va qabohatga moyil bo'lgan odamlarning ishonchi va orzusi sarobga aylangan, mudhish bir sharpani ilg'agudek bo'lganda, "jim" turishga o'rgatgan davr edi. Ana shu o'ta qaltis ruhiy-ijtimoiy bosim avj nuqtalariga chiqqan makonda yaratilgan ko'pgina asarlarning taqdiri – inson taqdiridan ham afzal sanalib, yaratuvchisini emas, yaratilganini elakdan ham o'tkazardi. Buning eng dahshatli manzarasi 1937-yillar miyonasidagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ruhiy kayfiyatning yakrang holatda saqlab turilishi mavjud tuzum kirdikorlarining say'-harakatlari evaziga murakkab segmentlarni paydo qildi.

**Qo'rquv saltanatidagi vaqt tig'izligi.** Qo'rquv saltanatidagi vaqtning tig'iz bir qiyofasi 1938-yil 4-oktabrga qadar davom etdi. Keyinchalik ba'zi o'rinlarda ziyoli qatlamning "bo'xton", "tuhmat", "g'iybat"lar bilan siylanib, ora-sira ularning ham senzurdan chiqish va istiqlolni madh etishga urinishda ayblanib, uzoq yillar qiynoqlar koloniyasida tutib turish holatlari ham kuzatildi. Biz Habibullo Qodiriyning "Otam haqida" nomli xotirasida makon va zamon masalasini quyidagi shaklda talqin qilib ko'ramiz.

**Tahsil xronotopi.** Abdulla Qodiriy o'n yillik maktabni bitirgunga qadar 5-6 marotaba maktab o'zgartirishga, oilasining nihoyatda qashshoq yashaganliklari, maktabdagi domlalardan ham ko'ngli to'lmay, boshqa maktablarga o'tib ketganligi, "eski" va "yangi" usuldagi ta'limni ham birday olganini o'g'li xotirlar ekan, bolalikdan o'ta og'ir kitoblarni o'qishni odat etganini alohida ta'kidlaydi:

Ijtimoiy ahvoli tang oiladan chiqqan bo'lg'usi yozuvchining o'zi ta'kidlaganidek:

"Maktabda ikki-uch yil chamasi eski usulda o'qib, keyingi vaqtlarda oilamizning nihoyatda qashshoq hayot kechirgani vajidan o'n ikki yoshimda meni bir joyga xizmatchilikka berdilar. Xo'jaynim o'zi savdogar kishi bo'lib, o'rischa yozuv-chizuv biladigan odamga muhtoj edi. Shu tama bo'lsa kerak meni o'ris maktab (rus-tuzem)ga yubordi. Maktabdan qaytib kelgandan so'ngra xo'jaynimning

<sup>35</sup> Эшонкулов Ж. Фольклор: образ ва талкин. –Қарши: Насаф, 1999. –Б.146.

xizmatini qilib yurganim uchun maktabda tegishli iste'fodani ololmadim; ikki yil mundoq xizmatda yurib chiday olmasdan, ota-onamga yolvorib uyimga qaytib keldim va o'z uyimdan borib haligi maktabda o'qib yurdim". (Qodiriy qisqacha tarjimayi hollarida qaysi rus-tuzem maktabiga qadar qaysi maktab va domlalarda o'qiganliklarini yozmaydilar – H.Q.)<sup>36</sup>.

Keltirilgan parchadan bilish mumkinki, Abdulla Qodiriyning bolaligi ham nihoyatda og'ir mehnat va mashaqqatda o'tganligini, uning fe'liga xos – erkin yashash, bo'ysunmaslik, o'zining og'irtabiqlik xarakteridan bir nav chekinmaslik instinkitining shakllanib borayotganligini mushohada qilish lozim.

Bobning ikkinchi fasli *“Xotiranomalarda polifonik nutqning o'ziga xosligi”* deb nomlangan. Xotiranomalarda polifonik nutq va xronotop talqini. Polifonik nutq har qanday badiiy asarda mavjud va uning ifoda shakllari ham turlichadir. Memuarda (roviy) nutqning ifoda tarziga ko'ra – so'zlab berish, dialog, polilog va monologlardan unumli foydalanilgan. Mavjud andozalar esa badiiy shaklga o'ziga xos tarzda jilolar bergan. M.Baxtin talqinida polifoniya nazariyasi – musiqa nazariyasidan o'zlashtirilib, badiiy asardagi personajlar tiynati negizida talqin qilish “urf”ga kirishiga mustahkam zamin yaratilgan. Prof.U.Jo'raqulov qayd etishicha: “Polifoniyadagi har bir mustaqil ovoz odamni bildiradi. U muallif ovozinining takrori yoki aks-sadosi emas. Bu ovoz polifoniya deb atalgan maydon aro muallif va boshqa qahramonlar qo'shilishi, ulardan ajralib chiqishi, ularni tasdiq yoki inkor etishi, hatto o'zga ovozlarga qarshi isyon ko'tarishi mumkin. Har bir ovozning o'z dunyosi, nuqtayi nazari, g'oyasi bor. U bularning barchasini himoya qilish, polifoniya doirasida namoyon etish va bu maydonga g'olib yoki mag'lub bo'lish huquqiga ega. Qizig'i shundaki, hatto muallif ovozinining to'la ma'nodagi mag'lubiyati ham boshqa ovozlarning faoliyatining o'zgarishi va so'nishiga olib kelmaydi. Shunga ko'ra polifoniya, ba'zi o'zbek adabiyotshunoslari qayd etganlaridek, ma'no serqatlamligi, ko'pma'nolilik emas. Undagi har bir ovoz bir mustaqil olam, ulkan dunyo ichidagi dunyodir”<sup>37</sup>. Ko'rib o'tganimizdek, badiiy xotiranomalarda muallif pozitsiyasi va makon hamda zamonda kechuvchi har qanday voqelik qayta ishlanadi:

“Yigirmanchi yillarda Abdulla Qahhor Serafimovichning “Temir oqim” romanini tarjima qilgan ekanlar. O'zbekiston davlat nashriyoti shu kitobni qayta nashr qilmoqchi bo'lib, Abdulla Qahhorga murojaat etganda: “O'sha yillari men rus tilini tatalab o'qigan edim, shuning uchun bu tarjimadan voz kechdim”, deb nashriyotga rasmiy ravishda ariza bergan ekanlar. Nashriyot bu asar tarjimasini menga topshirdi. “Eski tarjimangizni bering, foydalanay!”, deb Abdulla Qahhorga ko'p yalindim, lekin bermadilar. “Mening tarjimamdan foydalansangiz, chaynalgan ovqatni yutganday bo'lasiz va hech qachon sizdan yaxshi tarjimon chiqmaydi. Bolaga ovqatni ham chaynab bersangiz, tishi o'smay mo'rt bo'lib qoladi. Tarjimon ham shunaqa. Siz qo'lingizdan kelganini qiling, chiqarolmagan joylaringizni tojikcha ifoda etib qo'ysangiz ham mayli, keyin birgalashib ko'ramiz”, dedilar.

<sup>36</sup> Хабибулло Қодирий. Отам ҳақида. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –Б.12.

<sup>37</sup> Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. –Т.: Ғ.Фуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. –Б.78.

Abdulla Qahhorning talabchanligi sabab bo‘lib, men Lev Nikolayevich Tolstoyning “Urush va tinchlik” epopeyasi tarjimasiga jur’at etdim. Ona bolasining tetapoya bo‘lishi, mustaqil qadam tashlashi uchun nechog‘liq jon kuydirsa, Abdulla Qahhor ham mening o‘zbek tilini mukammal o‘rganishim, yaxshi tarjimon bo‘lishim uchun shunchalik sabr-u matonat bilan harakat qildilar”<sup>38</sup>.

Keltirilgan lavhada uchta mustaqil ovoz bir-biriga uyg‘unlashib, polifonik tafakkur va nutq uslubini yuzaga chiqarmoqda. Birinchi ovoz – muallif (roviy) nutqi, ikkinchi ovoz – nashriyot direktori nutqi, uchinchi ovoz – qahramon (Qahhor) nutqi uyg‘unlashib, ko‘p ovozlilikni, polifonik nutqni namoyon qilmoqda. Parchada, shuningdek, zamon xronotopi – yigirmanchi yillar voqeligi hamda oradan o‘ttiz yil o‘tgach – tarjimonning tajriba to‘plab, kuchga to‘lishgan, tafakkur sarhaddari kengaygan davri Zarifa Saidnosirovaning mehribonligi, kamarbastaligi, sadoqati bilan u o‘zini kuchli va irodali his qiladi. Natijada, bir-birini sira takrorlamaydigan go‘zal obrazlarni yaratish yo‘liga tushadi.

Bobning uchinchi fasli **“Xotirnavisning individual uslubi va tarixiylik mezonlari”** deb ataladi. Har bir ijodkorning o‘ziga xos uslubi bo‘ladi. “Uslub bu - odam”(Gyote) deganida shuni nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Aslida, uslub yozuvchining o‘ziga xosligini namoyon etuvchi ko‘zguvdir. Uslubning bir-biridan jiddiy tafovutlanishi, badiiy izlanishlar, tafakkur va falsafiy-estetik idrok nuqtayi nazarida yuzaga keladi. Uslubning tadrijiy o‘shish-o‘zgarishlari ikki xususiyatda namoyon bo‘ladi. Birinchisi, ichki ehtiyoj va ziddiyatlar fonida yuzaga chiqsa, ikkinchisi tashqi adabiy ta’sir, qiyoslashlar, o‘zlashtirishlar, hayotni teran tushunish bosqichida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, har bir ijodkor o‘ziga xos bir olam! “Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o‘zligi. Uslub – yozuvchi falsafasi ini’kosi”(A.Rasulov)<sup>39</sup>. Binobarin, badiiy uslub negizida voqelikning barcha komponentlari, eng kichik detal (jumla)dan tortib, katta g‘oyalar kashfiyoti yotadi. Ana shu jarayonda yozuvchi hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantira oladi. “Uslub nafaqat davr, ijtimoiy shart-sharoit, hayotda kuzatilgan voqea-hodisa, xarakter va holatlar, yozuvchi tasviriga ko‘chgan situatsiya va konfliktlarga bog‘liq, balki birinchi navbatda bu xarakter, holat-kayfiyat, konfliktlarni badiiy obrazlarda gavdalantiruvchi, hayotning original badiiy kartinasini yaratuvchi ijodkor inson – san’atkorga bog‘liq”<sup>40</sup>, - yozadi adabiyotshunos O‘.Nosirov. Haqiqatdan ham, badiiy uslubning o‘ziga xos qirralari yozuvchi ijodiy tafakkurining salmog‘ini, mohiyatini, hayotiy va badiiy g‘oya uyg‘unligini, ijodkorning ma’naviy olamini yanada tiniqroq shaklda ifodalash tamoyilini dalolatlaydi:

“Ba’zan er-xotin poyezdga tushib, Chirchiq stansiyasigacha borar, u yerdan piyoda yurib, uyimizdan xabar olar, keyin bozorga borib xarid qilgach, yana poyezdga o‘tirib boqqa qaytar edik. Birdan bir naqliyot vositamiz poyezd edi.

Boqqa ko‘chib chiqqandan keyin men ishdan bo‘shashga majbur bo‘ldim. U kishi: “Qani, bir mashq qilib ko‘rasizmi?” – deb, “Qo‘shchinor chiroqlari” romanining qo‘lyozmasini berdilar.

<sup>38</sup> Қаҳҳорова Кибриё. Чорак аср ҳамнафас. –Т.: Ёш гвардия, 1987. –Б.24-25.

<sup>39</sup> Расулов А. Бадийлик – безавол янгилек. –Т.: Шарк, 2007. –Б.70.

<sup>40</sup> Носиров Ў. Ижодкор шахс, бадий услуб, автор образи. –Т.: Фан, 1981. –Б.75.

Qo‘lyozma arab alifbosida edi. Ustiga ustak men hali u vaqtlarda o‘zbek tilini mukammal bilmasdim. Qiynalib bo‘lsa ham, roman qo‘lyozmasini o‘qish jarayonida o‘zbek tilini yaxshigina o‘rganib oldim.

Bir kuni qandaydir so‘zni noto‘g‘ri yozibman. “Ha, bechora o‘zi tojik bo‘lsa, yana qo‘lyozma arab alifbosida, bitta-yarimta xato qilgandir” deyish o‘rniga “Savod bormi?” desalar bo‘ladimi.

O‘shanda yig‘lamagan bo‘lsam ham yig‘lagandan battar bo‘lganim hanuz esimda. “Qo‘shchinor chiroqlari” men uchun birinchi maktab bo‘ldi”<sup>41</sup>.

Kibriyo Qahharova qalamiga mansub “Chorak asr hamnafas” xotira-qissasida muallif uslubining batakror qiyofasini ko‘ramiz. Bu “Oybegim mening”, yoki “Otam haqida” nomli esse-memuarlardan tubdan farq qiladi. Chunki Qahhor ijodiy olamiga singib ketgan ruhiyatida – Qahhorga xos “siquq” bir olamda turib tasvirlash, ixcham va qisqa ifodalash negizida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi badiiylik mezonlariga qat‘iy rioya qilar, uning umumiy va xususiy qirralariga zimdan e‘tibor bilan yondashar, jahon adabiyotidagi ilg‘or metodlarni sarhisob qilgan holda masalaga teran kirib borish malakasini ham o‘zlashtirishi shart bo‘ladi. Jahonning ilg‘or metodlarini samimiy o‘zlashtirish negizida yozuvchining individual uslubi yorqin ranglarda qabarib ko‘rinadi:

“1926-yildan boshlab Qodiriyning qizg‘in kundalik matbuotchilik faoliyatlari susaya boradi. Biron idora (redaksiya)ga bog‘lanib ishlashdan voz kechadilar. Faqat munosabati kelsa, ba‘zan-ba‘zan maqolalar, feletonlar yozadilar, o‘quv kitoblari, qishloq xo‘jalik risolachalari tarjima qiladilar, tahrir, lug‘at tuzish kabi ishlar bilan va asosan uy-xo‘jalik, dehqonchilik, bog‘dorchilik, qish kezlarida esa asta “Mehrobdan chayon” romanini yozish bilan shug‘ullanadilar.

Uch aka-ukaning ro‘zg‘ori, shahar hovlilari garchi avvaldan alohida bo‘lsa ham bog‘imiz o‘rtada edi. 1926-yilning yozida bog‘ ham bo‘linib olindi.

